

Aviakompaniyamizning tug'ilgan kuni munosabati bilan chegirmalarni taqdim etamiz!

2025 27 January

Faqat 28-yanvar kuni Uzbekistan Airways barcha mahalliy va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tariflarga 30% gacha chegirma e'lon qiladi.

Faqatgina bir kun – 28-yanvar, soat 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladigan chegirmali aviachiptalarni xarid qilishga shoshiling!

Aksiyasining batafsil shartlari:

Aksiya muddati 2025-yil 28-yanvar soat 00:00 dan 23:59 gacha;

Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

kattalar uchun tarifdan – 30% gacha;

2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 30% gacha;
chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;

Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;

Ilgari sotib olingan aviachiptalar 28.01.2025da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;

Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya'ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;

Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidolari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;

Chegirma e'lon qilingan barcha respublika ichidagi va xalqaro muntazam aviaqatnovlar ekonom va biznes-klass tariflarining barcha turlariga taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

Chegirma Uzbekistan Airways AJning barcha muntazam aviaqatnovlarida, HY aviaqatnovlari operatori bo'lgan hollarda (shu jumladan, respublika ichki aviaqatnovlarga ham) qo'llaniladi. Mazkur chegirma «Uzbekistan Helicopters» (HY1001-1100) va «Silk Avia» aviaqatnovlarida tatbiq etilmaydi

Yo'lovchi va yuk tashish tariflariga qo'shimcha ravishda turli soliqlar, yig'imlar va to'lovlar ham o'rnatiladi. Ularga 30% gacha taqdim etiladigan chegirma amal qilmaydi.

Chegirmali aviachiptalarni rasmiy saytda, aviakompaniya agentlari va Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 9-uy manzilida joylashgan Uzbekistan Airways Sales filialida xarid qilishingiz mumkin.